

Sizga havas qildik, farg'onalik bolalar!



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
5-aprel
N:14
(66763)

yulduzi

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Maxsus son

**Barkamol avlod -
2010**



Mazkur son farg'onalik
tengdoshlaringiz
haqida hikoya qiladi

**Barkamollik -
maktab ostonasidan
boshlanadi!**



Aziz o'quvchilar! «Tong yulduzi» gazetasi shu kunlarda xayrli bir ishga qo'l urdi.

Gazetamizni kuzatib borayotgan bo'lsangiz, yaqin o'tgan sonlarda xorazmlik o'quvchilar va tajribali ustozlar hayoti haqida maxsus sahifani e'tiboringizga havola etgandik. Bugun Farg'ona viloyatiga yo'l oldik. Maftunkor va betakror Farg'ona bizni bahoriy iliq sabolari bilan qarshiladi. Oltiariq tumanidagi katta yo'ldan o'tib borar ekanmiz, yo'lning ikki tarafidagi darvozasi ochiq hovlilardan ko'rinib turgan pastakina uzumzor ishkamlarni ko'rib, chindanda havasimiz keldi. Voy-bo', uzumzorlarning adog'i ko'rinmasdi. Qiziq, nimaga, Oltiariqda ishkamlar qo'l yetgudek qilib ko'tarilar ekan?! Sababini bilishga ulgurmadik. Manzilga yetib qoldik. Siz ham bunga qiziqib qoldingizmi? Unda buva va buvijonlaringizdan so'rab ko'ring-chi, balki ular bilishar? Biz esa yo'lda davom etamiz. Axir sayohatchilarni bilasiz-ku. Oldinda bizni ajoyib-u g'aroyib voqealar kutayotgani aniq edi...



Viloyat xalq ta'limi boshqarma boshlig'i Zikrilla Teshaboyev yaxshi tashabbuslar tarafdori



Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi asosida mamlakatimizda ko'plab yangi maktablar qurildi, mavjudlari kapital rekonstruksiya qilindi, kapital va joriy ta'mirdan chiqarildi. O'z navbatida bu maktablar jahon talablari darajasidagi mebellar, o'quv-laboratoriya va sport anjomlari, zamonaviy aqborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan to'la ta'minlandi.

Endigi asosiy vazifa o'quvchilar zimmasida. Ular bu g'amxo'rliklarga «labbay» deb javob beradigan payt keldi. A'lo o'qish, barcha jihozlarni ko'z qorachig'iday asrash har bir o'quvchining muqaddas burchi.

BIR SINFDA Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Farg'ona viloyatida ommalashib borayotgan «Mening maktabim – mening faxrim» tarbiyaviy tadbiri tahsinga sazovordir.

UCH NAVBATCHI

yoki «Mening maktabim – mening faxrim» tadbiri xususida

HAR KIMNING O'Z VAZIFASI

Mazkur maktablarda har bir sinfdan uch nafardan navbatchilar saylanadi. Bularning biri bosh navbatchi, qolgan ikkitasi yordamchilari hisoblanadi. Bosh navbatchi sinf doskasini artib, xonalarni shamollatib, tuvakdagi gullarga suv quyadi, o'quvchilar davomatini aniqlab, sinf rahbariga ma'lumot beradi. Qolgan ikki navbatchi har tanaffus paytida ho'l latta bilan sinf polini va boshqa jihozlarni artib chiqishadi.

RAQAMLANGAN PARTALAR

Har bir o'quvchi o'rindig'i tartib raqami bilan belgilanib, kundalik daftaring jildiga ham yozib qo'yiladi. O'quvchilar xoh sinf xonasida, xoh istalgan fan xonasida bo'lsinlar, o'sha kundalik jildiga yozilgan o'z o'rniga o'tiradilar. Bu esa har bir o'quvchining o'z o'rnida o'tirib, o'sha joyni ozoda saqlashi mas'uliyatini oshiradi.

TANLOV OYNASI

Hafta davomida ozodalik va sarishtalik bo'yicha sinflarning umumiy to'plagan baholari maktabda tashkil etilgan «Ko'rik-tanlov oynasi»ga yozilib boradi. Eng yuqori ball to'plagan sinf «Samolyot»ga, o'rtacha ballilar «Poyezd»ga, past ballilar esa «Toshbaqa»ga mindiriladi. Shuningdek, eng yuqori ball to'plagan sinfga «Haftaning ilg'or sinfi» nishoni, shu sinf sardori va ustoziga esa «Ilg'or sinf ustozini» va «Ilg'or sinf sardori» rag'bat tasmasi beriladi. Bu ishlarning barchasi har dushanba ku-

FARG'ONA

NIMA DEGANI?

Har bir shaharning takrorlanmas tarixi mavjud. Tarixini bilmagan insonning kelajagi ham yo'qdir, deyishadi. Men ham yashayotgan joyim hamda yurtim haqida ko'p ma'lumotlarni bilishga qiziqaman. Bizning jannatmakon go'shamiz Farg'ona viloyati haqidagi yozma manbaalarni o'qiganimda, Farg'ona markaziy Osiyoning marvaridi, degan fikrdan ko'nglim charaqlab ketdi. Bebaho bu yurtning farzandi ekanligimdan faxrlandim. Farg'ona so'zining ma'nosini ham bilib oldim. Buvimning ertaklaridagi Parixona parilar va go'zallar yurti, degan gaplari to'g'ri ekan.

Sahabat BOQIJONOVA,
Toshloq tumanidagi So'kchilik qishlog'i

ni ertalabki yig'ilishda amalga oshiriladi. Tasmani taqib olgan sinf rahbari o'quvchilarini davlat bayrog'i yoniga saflantiradi.

DUSHANBA – MUHIM KUN

Maktab direktori: – Diqqat, ilg'or sinf o'quvchilari sharafiga bayrog'imiz ko'tarilsin, – deb topshiriq beradi. Shunda ilg'or sinf o'quvchilari jo'r bo'lishib madhiyamizni kuylaydilar. Sinf sardori esa bayrog'imizni ko'kka tomon ko'taradi. Har dushanba kuni shu tadbir takrorlanadi. Bu tadbirdan asosiy maqsad – maktab binosini, anjom va jihozlarini ko'z qorachig'idek saqlash, maqsadli foydalanish, ko'p yillar ta'mirsiz ishlashiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarda mas'uliyat hissini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FAXRIYLAR – HAMKORIMIZ

«Mening maktabim – mening faxrim» tarbiyaviy tadbirining davomi sifatida «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» markazlarining tashkil etilishi, maktablar qoshida jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatuvchi faxriylar Kengashi tashkil etilishi yuqorida ko'zlangan maqsadni izchil amalga oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

Muloqotlar davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, faxriylar Kengashi sa'y-harakati bilan maktablarda o'quvchilar davomatini to'liq yo'lga qo'yish, darslarni sababsiz qoldirish, o'quvchilar orasida tartibbuzarlik, qonunbuzarlik va jinoyat sodir etilishining oldini olish, bu ishlarga ota-onalarni, mahalla ahlini keng jalb etish katta samara bermog'da.

Yana shuni ham alohida ta'kidlashni istar edikki, tajribali ustoz – O'zbekiston xalq o'qituvchisi, pedagogika fanlar nomzodi, dotsent Fursunali Qurbonov birinchilardan bo'lib «Mening maktabim – mening faxrim» tarbiyaviy tadbir g'oyasini hayotga tadbir etib, maxsus qo'llanma yaratib ezgu ishni amalga oshirdi. Bu tashabbus butun mamlakatga yoyilishidan hammamiz manfaatdormiz.



Marg'ilon shahridagi 32-umumta'lim maktabida o'qishni butun dunyo bolalari havas qilishsa, ajabmas. Iye, qanaqasiga, deya hayron bo'layotgandirsiz?

Hatto ishonmayotganingiz ham tabiiy. Agar o'z ko'zimiz bilan ko'rmaganimizda, biz ham ishonmasdik. Yaponiya, Koreya, Rossiya, Ukraina, Belorussiya... Bu kabi davlatlar ro'yxatini davom ettirishimiz mumkin. Bu davlatlardan kelgan mehmonlar maktabning esdaliklar kitobiga yozgan dastxatlarida mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoit va e'tibordan hayratga tushganlarini yashirmaganlar. Va, albatta, o'z yurtlariga qaytgach, O'zbekistondagi o'quvchilar, ularning hayoti haqida zavq bilan bolalariga so'zlab berishgan.

2006-yil mart oyida qurilishi boshlanib, o'sha yilning sentabr oyida foydalanishga topshirilgan mazkur maktab o'quv laboratoriya, kompyuter xonalari, 120 o'rinli oshxona, sport zali, axborot resurs markazi, 38 ta fan xonalari to'la jihozlangan holda o'quvchilar ixtiyoriga topshirildi.



Maktab direktori Jamila opu Ahmedova bilan qilgan muloqotimiz davomida bu maktab o'quvchilarining har jabhada oldingi saflarda ekanliklarini bilib, ajablanmadik. Chunki bunday maktabda tahsil olayotgan o'quvchilarning har jihatdan yetuk bo'lmastiklari mumkin ham emas-da!



Jamila opadagi g'ayrat-shijoatning cheki yo'q. Shunchalik jo'shqinlikni qayerdan olasiz, deya kulishdik.

– 2007-yil 7-sentabr kuni maktabimizga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashrif buyurdilar. U kishiga o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayonlari haqida gapirib berdim.

«Maktab, oila, mahalla» hamkorligi asosida olib borilayotgan ishlarni ko'rib:

«Demak, bu maktabda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarning taqdiri ishonchli qo'llarda, desam bo'laverar ekan-da. Bu ishlarni boshqalarga ham o'rgatish, targ'ib etish kerak», deya ishonch bildirdilar.

Mana shu ishonch menga kuch, ilhom beradi. 750 nafar o'quvchilarimning har bir yutug'i dilimga quvvat bag'ishlaydi.

Ustoz va o'quvchilar davrasidan sira ajratgimiz kelmaydi.

Yana ko'rishguncha, deya xayrlashdik. Mabodo, yo'lingiz tushib qolsa, siz ham buguni quvnoq, ertasi porloq bu maktabga kirib o'ting. Asosiysi, ketgan vaqtingizga sira achinmaysiz, aksincha, barkamollik maktab ostonasidan boshlanishiga to'liq ishonch hosil qilasiz.

Haybatli darvozadan ichkariga hatladik. Yog' tushsa, yalagudek yo'lka, hovlisidagi noyob dov-daraxtlar, ajib gullar, antiqa o'rindiqlar hech kimni befarq qoldirmadi. Istiqbolimizga shirin tabassum bilan oshiqayotgan ayolni ko'rib, bizga hamrohlik qilayotgan Bahodir va Abdumajid akalar sekin shipshitishdi:

– Majmua rahbari Galina Alekseyevna Akopjanova shu inson bo'ladilar.

Xuddi eski qadrdonlardek hol-ahvol so'rashdik. Keyin esa bizga hamrohlik qilishni Galina opadan iltimos qildik. U kishi bajon-u dil rozi bo'ldilar.

– Majmuamiz mustaqilligimizning ilk kunlarida 1-sinfga 25 nafar o'quvchi qabul qilish bilan o'z faoliyatini boshlagan. Bugungi kunda maktabda 1122 nafar o'quvchilar hamda 298 nafar bog'cha bolalari 167 nafar ustoz va murabbiylar qo'lida kamolga yetmoqdalar.

Ta'lim-tarbiya, davomat bo'yicha maktabimiz o'n yildan beri g'oliblikni qo'ldan bermay kelyapti. Bizda yuqori darajadagi axborot-kommunikatsiya

BUGUNNING MAKTABI

Aziz bolajonlar! Farg'ona bo'ylab safarimiz davom etmoqda. Sizlarni zeriktirib qo'ymadikmi? Yo'q, deysizmi, unda yo'lda davom etamiz. Keyingi manzilimiz Farg'ona shahridagi 40-ixtisoslashtirilgan bog'cha-maktab majmuasi ekan.

Ana, yaqinlashib ham qoldik. Iye, bu maktabga o'xshamaydi-ku! Nazarimizda biror-bir oliy o'quv yurti ro'parasidan chiqib qoldik, shekilli. Safardoshlar hayrat bilan binoga qarab qoldik: – Adashib qoldikmikin?!

texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilgan. Turli fanlar bo'yicha respublika fan olimpiadasi g'oliblari bo'lgan o'quvchilarimiz bor. 5 nafar o'qituvchimiz «Yil o'qituvchisi» tanlovi

g'olibi bo'lishdi. 60 dan ortiq turli to'garaklarimiz muntazam ishlab turibdi. Maktabimiz o'z gazetasi va radio tarmog'iga ega. Bitiruvchilarimizning ko'pchiligi respublika va xorijdagi oliy



o'quv yurtlarida tahsilni davom ettirmoqdalar.

Galina opaning hikoyalari mahliyo bo'lgan u kishini savolga tutamiz:

– O'quvchilarni qabul qilish qoidalari haqida ham gapirib bersangiz.

– Bog'cha-maktabimizda farzandlarini o'qitishni xohlaydigan ota-onalar juda ko'p. Bolajonlar uch yoshidan boshlab qabul qilinadi. 1-sinfga borgancha o'qish va yozishni, o'zbek, rus, ingliz va koreys tilida so'zlashishni o'rganib oladilar.

Ana, bolajonlar, 40-maktab haqida ham bilib oldingiz. Endi to'polonchi bolalar uchun ham bir yangilikni aytib qo'ymoqchimiz. Bu yerda har bir sinfda kameralar o'rnatilgan. Maktab rahbari istagan paytida, xohlagan sinfdagi dars jarayonini o'z xonasidan turib bemalol kuzata oladi, bunisiga nima deysiz?! Galina opaning hikoyasi bizga ham yoqdi. Sizga yoqdimi?



Maktabning eng a'lochi o'quvchisi bilan tanishish biroz qiyin bo'ldi.



ENG A'LOCHI O'QUVCHI

Sababi, ular anchagina ekan. Bu esa bizni quvontirdi. Shunday bo'lsa-da, biz ham bo'sh kelmay, eng, eng engi bilan suhbatlashishga erishdik.

8-«V» sinf o'quvchisi Jahongir Madvaliyev futbol, kimyo, biologiya to'garaklarida o'z bilimini mustahkamlamoqda. Ukalari Ilyos va Begzodga o'qishlarida eng yaqin ko'makchi.


– Shifokor bo'lib, atrofda qilargana yordamim tegsa, deyman. Ko'p bora takrorlaganimiz, izlanganga, intilganga tole yor – mening ham shiorim, – deydi Jahongir.

Intilish, izlanish bu a'lo fazilat. Ammo u hammaga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun aytishadi-da, orzuning ijobati iroda-yu jasoratda, deb.

Ushbu o'quv yilining shiori – «Aqlga – bilim, qalbgaga – ma'naviyat». Bu borada Farg'ona shahridagi 33-maktabda yanada yaxshi ishlar amalga oshirilyapti. Chunki bu yerdagi maktab rahbari va muallimlarining muomalasi ipak, talabi toshdir. Shu sababdanmi, bu maktabda «tarbiyasi og'ir» degan xunuk ibora ishlatilmaydi.

ODDIYLIKDAN MURAKKABLIKKA

Bilimli, hunarli, odebli bola komildir. Ana shundaylardan biri 8-«B» sinf o'quvchisi Dilafro'z Mirzaqulova.



U «Yosh kimyogar» to'garagining faol a'zosi. Ustozi kimyo fani o'qituvchisi Saodatxon Jabborovadan bu fanning sir-sinoatlarini qunt bilan o'rganmoqda.

– Bo'sh vaqtlarimda badiiy va ilmiy kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman, – deydi Dilafro'z. – Istandimki, har bir o'quvchi bugungi vazifasini to'liq bajarsa. Chunki kelajak bizning qo'limizda. Ustozlar ishonchini oqlash katta sharaf.

Kitobga mehr qo'yishning o'zi katta yutuq. Dilafro'z bu borada birinchi qadamini qo'ydi. Zero, kitob oddiylikdan murakkablikka yetaklaydi.



«BARKAMOL AVLOD-2010» QUTLAYDI



OLTIN DIPLOMLI SARDOR

Islomjon Rahmatov 9-«G» sinfida o'qiydi. U 9 yildan buyon sinf sardori. «Kamolot» YOIH MK tashabbusi bilan tashkil etilgan «Sardorlar maktabi» tinglovchisi. Tadbirlar loyihasidagi yaxshi natijalari uchun oltin diplom sohibi bo'lgan.

Sinf rahbari Yorqinoy Tojiboyeva bilan maslahatlashib, barcha ishlarni birgalikda bajaradi. Bolalar ensiklopediyasi, badiiy va ilmiy kitoblarni o'qishni xush ko'radi.

– Sardor atrofida qilargana hamma tomonlama o'rnak, ibrat bo'lsagina, u chinakam sardordir, – deydi bizning yetakchilarning yetakchisi bo'lish qiyin emasi, degan savolimizga javoban Islomjon. Chunki bu maskanga eng a'lochi, iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi-da. – Istagim, avvalo, yurtimiz tinch bo'lsin. Tengdoshlarim ko'p o'qishin va, albatta, uqishsin. Yoshlikning har bir daqiqasini qadrlashsin.

Vaqtni qadrlash, undan unumli foydalanishga harakat qilish qanday yaxshi. Yoshlikdanoq buni tushunib yetish undanda yaxshi. Islomjon bilan suhbatlashar ekanmiz, xayolimizdan shoirning ushbu misralari o'tdi:

Har fursat g'animat ekanin bilar,
Kimki qanoatga to'ldirsa ko'nglin.

YUNISEF bealqaro bolalar jamg'armasining «Bolaga do'stona munosabat» dasturi asosida faoliyat yuritayotgan Farg'ona shahridagi 40-ixtisoslashtirilgan bog'cha-maktab o'quvchilari bilan suhbatlashgimiz keldi.



Marg'ilon shahar 1-«Mehribonlik ayin» tarbiyalanuvchilari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ular orasidagi bir qizaloq o'tiborimizni tortdi.

BO'LAJAK ADVOKAT

U o'zining tikuv mashinasida ish tikayotgan edi. Bizning suhbatimizga qo'shilmas, butun vujud bilan ishga berilib ketganidan qo'lidagi mato go'yo raqsga tushayotganday ko'rinar. Uni chalg'itishni istamasakda, qizaloq bilan juda-juda tanishgimiz keldi. Dilraxonon Mirzaahmedova 8-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi, «Kamolot» YOIH shahar Kengashi, Usta hunarmand markazlarining «Chitgarlik» yo'nalishi bo'yicha sertifikat sohibasi ekan. U bilan orzulari, tilak va istaklari haqida suhbatlashdik.

– Dilraxonon, qo'ling ham ancha kelishib qolibdi. Niyating mohir chevar bo'lishmi?

U bir zum tikayotgan ishidan to'xtab, bizga ma'yus qaradi.

– Mening niyatim kelajakda advokat bo'lish. Shu sohani puxta o'rganib, insonlarga yordam berish. Agar orzularingaga erishsam, bor kuch-g'ayratimni yaxshilik va yaxshilar uchun sarflayman.

Metindek irodali Dilraboga niyating hamrohing bo'lsin, degimiz keldi. Zero, donishmand xalqimiz yoshlikdan o'rgansang bilim va hunar, hayot aytganingga hamisha ko'nar, deb bejiz aytishmagan-da.

...GULLAR MAKONI DEDIK

Viloyat bo'ylab safar chog'ida aslo zerikmadik. Sababi, shoir, yozuvchilar, sozanda-yu sozandalar ta'rifiga sig'magan sokin, go'zal Farg'ona so'lim tabiati, samimiy odamlari, iqtidorli o'quvchilari bilan hayratimizni oshirdi.

Havoxon Anvarova ham shu jannatmakon o'lkaning qizi. Shahardagi 33- maktabning 8-«V» sinfida o'qiydi. Uning maktabini biz ikkilanmay gullar, va san'atsevarlar makoni dedik. Har bir sinf xonasi va maydonidagi gullar o'quvchi va o'qituvchilarning mehridan yashnagan. Tinib-tinchimas, ertasini bugundan o'ylayotgan Havoxon dadasi kabi kulolchilik va rassomchilikka havas qilib, ish boshlaganiga ham salkam o'n yil bo'ladi. Bolaligidanoq uyda loy pishitib, turli buyumlar tayyorlayotgan otasining har bir harakatini kuzatgan qizaloq negadir kulolchilikka astoydil mehr qo'ydi. Yaratayotgan buyumini avval oppoq qog'ozga chizish lozimligini ham dadasidan o'rgandi. Bugun esa u qadimiy o'yinchoqlarni yaratayotgan mashhur kulolchi qizga aylandi. 2007-yil Respublika «Yangi avlod» ko'rik-tanlovida g'oliblar qatoridan joy oldi. «Tashabbus» tanlovining shahar bosqichi esa ijodkor qizni hamshaharlariga yaqindan tanishtirmoqda. Viloyatda o'tadigan «Kamolot» ko'rik-tanlovining har bir tadbiri bir iste'dodni kashf etmoqda.



QUYOSH BIZGA SHE'R AYTDI

Ishonish yoki ishonmaslik o'zingizga havola.

Ammo 33-umumta'lim maktabining yo'laklaridagi bejirim gullarga mahliyo bo'lib yurganimizda, yonimizga qo'lida katta guldasta ko'targan, sariq kiyimda, atrofga go'yo nur taratib turgandek bir shirintoy bolakay keldi. Adashdim, bir dunyo keldi, bebaho ne'mat keldi...

– Salom quyosh bobo, nurlar sochib charchamadingizmi? – so'raymiz bolalarcha samimiyat bilan.

– Mavjudotni uyg'otaman Ayamay sochib nurimni.

Maysalar boshin silayman,

Baxsh etib qalb qo'rimni, – deya she'r o'qidi bolakay. Ustozi Nodira opa Mirzayevadan bolajonning ismi Omadbek ekanligini bilib oldik. U maktabdagi «Salom. Navro'z!» bayramida Quyosh bobo bo'libdi.

– Quyosh bobo, she'rularingiz o'zingiz kabi buncha shirin, – desak, Ozodbek Nazarbekovning

Xizmatigda turmasam agar,

«Bolan dema, Vatanim meni»

qo'shig'idan ikki misra kuylab, mehrimizni yanada oshirdi.



MASHHURA NEGA MASHHUR?

Darvoqe, biz hali ham Farg'ona shahrida yuribmiz...

Yana 33-maktabda! Soat millari esa tezroq bo'linglar, hali viloyatning tuman va qishloqlariga ham sayohat qilishingiz kerak, deya shoshirardi.

Ajabo, maktab burchayam chiroyli bo'lmasa! 45 yillik muallima Dilbar opa Husanova dars o'tayotgan sinf xonasining deraza tokchalaridagi yoron gullar xuddi kelishib olgandek alvon bo'lib gullagan. Sinf darpardalari ko'tarilgan, axir deraza ortida BAHOR nafasi! Maktab bog'idagi olxo'rilarning qiyg'os gullab turganining o'zi takrorlanmas mo'jiza edi.

– Bolalar, sinfingizda eng a'lochi o'quvchi kim? – desak, ular barabariga: – Mashhura, – deyishdi. Hayajondan yuzi olmadek qizargan Mashhura o'rmidan turar ekan: – Biz hammamiz a'lochimiz, – dedi. O'qituvchining yonidagi partada o'tirgan bola: – Mashhuraning yana bir fazilati – u hech qachon, hech kim bilan urishmaydi, – dedi.

Balki sizning maktabingizda ham Mashhuradek mashhurlar bordir, nima dedingiz?



VAQTIMIZ CHOG' O'TMOQDA



O'tgan yili Marg'ilon shahridagi 18-maktabda «To'garaklar faoliyatini takomillashtirish» mavzusida Respublika seminari tashkil etildi.

Bu esa maktabdagi to'garaklar ishini yanada faollashtirdi. O'quvchilarning aksariyati turli to'garaklarga jalb qilindi va bo'sh vaqtlari mazmunli o'tishiga erishildi.

«Qomusimiz – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovida maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Nodirbek Maqsudov viloyat miqyosida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» fani oyligida 6-«B» sinf o'quvchisi Muhammadyusuf Sheraliyev birinchi, 5-«V» sinf o'quvchisi Go'zaloy Abdurahimova ikkinchi o'rinni oldilar.

Bu kabi raqamlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Eng muhimi, o'quvchilarda intilish, g'oliblik sari olg'a qadam tashlash ishtiyoqi bor. Keling, yaxshisi, suratlariga e'tibor bering, o'zingiz tushunib olasiz.



MULKDOR BO'LISHNING SIRI

Mulkdor bo'lishni xohlaysizmi? Unda, Siz bilim olishga va hunar egallashga shoshiling. Chunki bilim va hunar mulkdir. Bu mulkni bolalikdan to'plab, mustahkamlab borish zarur. Bu borada maktabdan tashqari muassasalarning o'rni beqiyos.

YO.TO'LANOVA,
Buvayda tuman o'quvchilar «Bioekosan» markazi direktori:

– 2009-2010-o'quv yilining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi o'quv yili» deb nomlanishi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari oldiga yanada katta mas'uliyat yukladi. To'garak a'zolarining bilimlari test sinovlari asosida o'rganib borilmoqda. Mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tishga alohida ahamiyat berilmoqda.



Xudoyberdi YO'LDOSHEV, Buvayda tuman O'quvchi yoshlar texnik ijodiyot markazi direktori:

– Markazimizda milliy hunarmandchilik, texnik va kompyuter yo'nalishidagi 16 ta to'garak bo'lib, unda mingga yaqin o'quvchilar



bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga harakat qilishadi. Ushbu to'garaklar maktablar qoshida ham tashkil etilgan.

To'garak a'zolarimizdan Sanjarbek Rahmonov

«Yosh fazogirlar» musobaqasining Respublika bosqichida birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Sardorbek Muqimov viloyatda o'tkazilgan «Istiqlolim, abadiy bo'l, senda topdim ijod va baxt» festivali g'olibi bo'ldi. Iqtidorli o'quvchilarimiz I-darajali Diplom bilan taqdirlanishdi. Bu ezgu ishlarimizga bosh bo'layotgan H.Mahmudova, Z.Polvonova, D.Imomova, R.Sotvoldiyeva kabi tajribali ustozlarimizdan barchamiz xursandmiz.



To'garaklarimiz maktablar qoshida ham tashkil etilgan. 3-maktabning «Tabiat va ijodkor» to'garagi rahbari M.Maddiyevaning tajribalari boshqa to'garak rahbarlari uchun o'rnatilgan ko'rsatilmogda.

F.TO'YCHIYeva, tuman O'quvchilar ijodiyot markazi direktori:

– Markazimizda hunarmandchilik, san'at va badiiy yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Unda 30 ta to'garak faoliyat yuritadi. 2000 ga yaqin o'quvchilar jalb qilingan. Shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mahalla faollari, sohaning yetuk mutaxassislari, olimlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Yaqinda ana shunday suhbatlardan biri – «Oilada, maktabda qizlar tarbiyasi», «O'zbekiston sport yulduzlari», «Terrorizm – mudhish xato», «Giyohvandlik yomon illat» kabi mavzular bolajonlarni befarq qoldirmayapti.



Bahodir Shokirov 1954-yili Oltiariq tumanida tug'ilgan. Maktab yoshidayoq adabiyotga bo'lgan havas uni Farg'ona Davlat pedagogika oliyog'iga yetakladi. Bugungi kungacha

ustozning «Istiqlol mevasi», «Armon», «Rahimnoma» hamda «Daraxt va arra» nomli kitoblari chop etilib, muxlislari qo'lga yetib borgan.

Bolalar nashrlariga ehtiromi cheksiz bo'lgan bu inson ayni chog'da viloyatda chop etilayotgan «Ustoz» va «Farg'ona nurli kelajagi» nomli gazetalarni chop etishga rahbarlik qilib, ularni maktablar bo'lib va sermazzun bo'lib chiqishida fidokorona mehnat qilmoqdalar.

SHER, FIL VA ASALARI

O'rmondagi hayvonlar-u hasharotlar o'rtasida «O'rmonning eng zo'r hayvoni» tanlovi o'tkazildi. Tanlovda Sher, Fil va Asalari finalga chiqdilar.

Sher jasorat va dovyuraklik timsoli deb topildi. Fil eng kuchli va chidamli hayvon deya baholandi. Asalari esa eng buyuk kashfiyotchi – tanlovning mutlaq g'olibi bo'ldi.

Ittifoqo, Sher e'tiroz bildirdi:

– Shu tirnog'imdan ham kichik Asalari nahot barchamizdan zo'r bo'lsa?!

Shunda Sher oldiga bir dasta gulni qo'ydilar va «Shu gullardan ozgina asal tayyorlab bering», dedilar. Sher xijolatda qoldi.

Alqissa, Asalari qilgan ishni na Sher, na Fil qila oladi. Zero, gap shaklda emas, mazmun-mohiyatdadir.

RASSOMLARGA HAVAS QILAMIZ



Shahnaza RAHMATALIYEVA



Muattar SULTONOVA

Buvayda tumanidagi 40-maktab o'quvchilari rasm chizishni yaxshi ko'rishadi.



Umida BEKMIRZAYEVA



Marg'ilon shahridagi 8-maktabning 9-sinf o'quvchisi Ayozbek BOBOYEV chizgan rasmini «Gulchambar» deb nomlabdi.



Barkamol avlod – mamlakat kelajagi



MEDALLARI O'ZIDAN OG'IR

Shokirjon QODIROV Oxunboboyev tumanidagi 1-maktabning 9-«A» sinfida o'qiydi. U Qamishtepa qishlog'ining faxri. 9 yildirki, sportning taekvando turi bilan shug'ullanib dunyo kezmoqda. Rossiya, Italiya, Hindiston, Tailand kabi davlatlarda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qildi. O'zbekiston terma jamoa a'zosi, Osiyo va jahon chempioni Shokirjon ayni chog'da poytaxtda o'tadigan katta musobaqaga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Qamishtepalik sportchi bolani bizga «Medallari o'zidan og'ir bola», deb ta'riflashdi. Bizda bu bahodir bolani ko'rish istagi tug'ilib, u ta'lim olayotgan bilim maskaniga shoshildik. Afsuski, bu gal omadimiz kelmadi. Shokirjon Marg'ilon shahrida Navro'z bayramiga bag'ishlab o'tkazilayotgan viloyat birinchiligida ishtirok etayotgan ekan. Shunday sportchini ko'rolmay qolar ekanmiz-da, deb kayfiyatimiz tushib ketdi. Shunda hali viloyatda maktablar ko'p-ku, deya o'zimizni yupatgan bo'ldik. Shu payt bizga hamrohlik qilayotgan Abdumajid akaning qo'l telefoni jiringlab qoldi. Ma'lum bo'lishicha, Shokirjon Marg'ilonidagi musobaqada ham birinchilikni qo'lga kiritib, o'qituvchilari, do'stlarini xursand qilish uchun murabbiyi Bobobek aka Kazakov bilan maktabiga kelishga ham ulguribdi. Biz ham uning quvonchiga sherik bo'lish uchun ortimizga qaytdik. Musobaqadan qaytgan kichik jussali, yosh chempionning bo'ynida chindan ham o'zidan og'ir medallar shodasi borligini ko'rgach, ertamiz egalarining buguni bez ketmayotganligi bilan g'ururlandik.



UMID BILAN «UMID NIHOLLARI»GA


Madina G'ulomova 32-maktabning 9-sinf o'quvchisi. U viloyat chempioni. Sportning yengil atletika turi bilan muntazam shug'ullanadi.



Otabek aka Ahmedov maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi. Talabchan murabbiy mehnati samarasi o'laroq bu maktabdan ko'plab chempionlar yetishib chiqib, viloyat birinchiligida sovrindor bo'lishmoqda. Sababi, maktabda bo'lib o'tadigan suzish, yengil atletika, shaxmat, shashka, futbol, voleybol va qo'lto'pi musobaqalarida o'quvchilar o'z mahoratlarini oshirib borishyapti, sportga chin ma'noda do'st bo'lishyapti. Madinaning ham sportchi bo'lishida jismoniy tarbiya murabbiyining hisssasi katta.

– Dastlab, – deydi Madina, – suv sportiga qiziqdim. Musobaqalarda qatnashib, bir necha bor shahar, viloyatda sovrindor bo'ldim. G'oliblik sururidan zavq oldim. Murabbiy maslahati bilan yengil atletika musobaqalarida qatnasha boshladim. Nihoyat, 60 metrga yugurish bahsida viloyatda yuqori shohsupadan joy oldim. Hozirda esa 2012-yilda Navoiy viloyatida bo'lib o'tadigan «Umid nihollari» musobaqasiga puxta tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Dugonam Shohsanam Sharipova bilan oltin medal sohibasi bo'lishni orzu qilmoqdamiz.

Avazjon shaxmat o'ynashni «Mehribonlik uyida» o'rgandi.



MURABBIY MAHORATI

Bu yerda har bir o'g'il-qiz bo'sh vaqtini sport zalida o'tkazishga harakat qiladi. Sababi, Adhamjon aka Eminovdek murabbiylari bor.

Bolalardagi qobiliyatni vaqti kelsa ota-onasi ham payqamay qoladi, ammo ustoz biladi. Avazjon, men baxtli bolaman, deya faxrlansa arziydi. Shuning uchun ham, ustoz elda aziz, deydi. Axir u hozir shaxmat bo'yicha viloyat chempioni. G'oliblik uni respublika musobaqalariga yetakladi. Murg'ak qalbida bir olam orzu bilan dona surayotgan zukko tengdoshingiz nufuzli musobaqalarning ham g'olibi bo'lsa, ne ajab?! Niyati ulug', qadamlari qutlug' bo'laversin!



Vali AHMADJON

To'g'ri, hamma qo'shquloq,
Ammo Nodir bo'shquloq.
Og'iz ochsang poylaydi,
Qancha gap bor joylaydi.
U saqlashni xohlamas,
Tarqatadi shu nafas.
Jo'shib- jo'shib aytadi,
Qo'shib- qo'shib aytadi.
Behuda bu yumushdan,
Uyga horib qaytadi.



QALDIRG'OCH

Har kun erta tong turib,
Osmonlarda uchaman.
Yuksakka parvoz qilib,
Samolarni quchaman.
– Aytgil, ey qaldirg'ochim,
Qay yurtlarga shohasan?
Unutmagin hech qachon,
Sen biz uchun qadrdon.

Sevara TOLIPOVA,
Bag'dod tumanidagi
4-maktabning 7-sinf
o'quvchisi

QUSHLAR

Moviy osmon uzra
Uchadi qushlar.
O'rik guli aro
Sayrar bulbullar.
Laylaklar qanotini,
Yozib o'ynaydi,
Samoda o'ynoqlab,
Kaptar tinmaydi.
Bir-biri ila,
Gaplashgan misol.
Chug'urlab har tongda
So'rar hol- ahvol.

Sanobar G'AFUROVA,
O'zbekiston tumanidagi
18- maktab o'quvchisi

BOYCHECHAK

Bahorning elchisidir
Sevimli boychechaklar.
Bolalar quvonchidir
Suyukli boychechaklar.

Tog'-u toshli qirlardan,
Kulib, yayrab chiqajak.
Bahori go'zal yurtda,
Barkamoldir kelajak.

Sultonbek ALLANOV,
Farg'ona tumanidagi
3-maktab o'quvchisi



«VODIY CHAMANI» AYLANMA SKANVORDI

... tong otguncha" (roman)
Tarixiy, xonlik shahri
Turpi bilan tanilgan tuman
Ma'rifat-parvar shoir
Kumush-bibi vatani
Vodiyning gullamas ho'l mevasi
Chegaradosh viloyat
Tog'lik oromgohi
Futbol jamoasi
G'azal-navis shoir
Kulollar mas-kani
Qadimiy g'or
Viloyatdagi suv ombori
Iqbol ... (taniqli shoir)
Tennis majmu-asi
XVIII asr lirik shoiri
Shifobaxsh oromgoh
Shoir, "Ilm xosiyati" muallifi
Vodiydan oqib o'tuvchi daryo
Ahmad al-... (alloma)
Iqlimlash-tirilgan jonivor
Anvar ... (bolalar shoiri)
Tumarlardan biri
Quvaga xos meva
O'zbek mumtoz shoirasi
Farg'ona ... ma-qom yo'li
Saharga nomdosh tuman
Tizma tog'lik
Mumtoz g'azal-navis shoir

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Aziz bolajonlar! Mana, birgalikda Farg'ona viloyati bo'ylab qilgan sayohatimiz ham nihoyasiga yetdi. Bu yerdagi tengdoshlaringiz, ularning o'qish va jamoat ishlarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan qisman bo'lsa ham tanishdingiz. Shuni ham aytib o'tmoqchi edikki, Farg'onada ta'lim-tarbiya sohasida qilinayotgan ibratli ishlar benihoya ko'p ekan. Biz ularni barchasini qamrab ololmadik. Balki bu mavzuga mavridi bilan yana qaytarmiz.

Agar bu sayohatimiz sizda qiziqish uyg'otgan bo'lib, farg'onalik tengdoshlaringiz qo'lga kiritayotgan yutuqlari qalbingizni havasga to'ldirgan bo'lsa, biz bundan behad mamnunmiz. Hozircha bu sayohat taassurotlarini «Tong yulduzi»chilar To'lg'in Hayitov, Feruza Jalilova, Ma'mura Madrahimova, Feruza Adilova, Yusuf Abdullayev, Nargiza Abdullayeva, Fazliddin Shoyodgorov, Olovuddin Oripov, «Ustoz» va «Farg'ona nurli kelajagi» gazetalarini Bosh muharriri Bahodir Shokirov, viloyat soalq ta'limi boshqarmasi o'zodimi Abdumajid Soliyev o'tiboringizga havola etishganini ma'lum qilib qolamiz.

Maskur sonni tayyorlashda yaqindan ko'mak berganlari uchun Farg'ona viloyati soalq ta'limi boshqarmasi rahbariyatiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYITOV**

Dizaynerlar:
**Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV**
Navbatchilar:
**Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilmiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 75825
Buyurtma N: J 9225